


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Xususiy korxona




Aksiyadorlik jamiyati




Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(*iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida*)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(*yanvar-iyun oylarida, birlikda*)





**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar**
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan
yilning shu davriga nisbatan **80,8** foizni tashkil etdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chovachilik,
ovchilik va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi

94,9 %

4,9 %


*Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta'rifi*




Sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



*Jami faoliyat
ko‘rsatayotgan sanoat
korxona va tashkilotlarning
umumiyligi o‘tgan yilning
shu davriga nisbatan 77,6
foizni tashkil etdi*




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra,
sanoat korxonalari va tashkilotlari soni
4058 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos
davriga nisbatan 77,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 76,9 % ni (jami sanoatdagi ulushi 91,3 %), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 79,4 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) tashkil etib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 87,1 % ni (jami sanoatdagи ulushi 0,7 %) va tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 88,0 % ni (jami sanoatdagи ulushi 6,7 %) tashkil etdi.


**Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



**Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan
korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida**





Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 63,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26,7 foizga kamaygan;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 16,0 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 25,3 foizga oshgan;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 20,8 foiz ulushni va 26,8 foizga kamaygan.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida (2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 10 630 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi. Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 71,3 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 91,3 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 20,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 97,9 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 93,8 foizni tashkil etdi.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo
- Avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta'rifi

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**
(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

756



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

16




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **97,0** foizni tashkil etdi*




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87,5 foizni tashkil etdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



226
yashash bo'yicha xizmatlar




1 502 oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 157,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


-mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 13,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 86,9 foiz ulushin tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)




Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(ijtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati

Oilaviy korxonalar soni

(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)




Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 568 taga ko‘paygan.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 29 903 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 16 831 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining
davlatlar kesimida soni**

(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra 264 tani tashkil etib, ulardan 166 tasi yoki 62,9 % faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 16 taga yoki 6,5 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2023- yilning yanvar- iyun oylarida viloyatimizda 12 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Qashqadaryo viloyati	166	108	58
G'uzor	9	7	2
Dehqonobod	15	10	5
Qamashi	6	4	2
Qarshi	12	6	6
Koson	11	6	5
Kitob	13	8	5
Mirishkor	8	5	3
Muborak	13	5	8
Nishon	8	5	3
Kasbi	6	1	5
Ko'kdala	3	2	1
Chiroqchi	5	5	-
Shahrisabz	3	1	2
Yakkabog'	9	6	3
Qarshi sh.	40	34	6
Shahrisabz sh.	5	3	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 40 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 24,1 %), Dehqonobod 15 ta (9,0 %), Kitob 13 ta (7,8 %), Muborak 13 ta (7,8 %), Qarshi 12 ta (7,2 %), Koson 11 ta (6,6 %), G'uzor 9 ta (5,4 %) Yakkabog' 9 ta (5,4 %), Nishon 8 ta (4,8 %) va Mirishkor tumanlarida 8 ta (4,8 %), tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan 47 137 ta korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (18,4 %), Koson (7,9 %), Yakkabog' (7,2 %), Kitob (7,2 %), Qarshi (7,2 %), Qamashi (6,7 %), Chiroqchi (5,5 %), G'uzor (5,4 %), Shahrisabz shahri (5,2 %), Shahrisabz (4,8 %), Dehqonobod (4,8 %), Kasbi (4,8 %), Nishon (4,7 %), Mirishkor (4,2 %), Muborak (3,2 %) va Ko'kdala (3,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2023- yil yanvar- iyun oylarida, birlikda)


2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan 3843 ta korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Qarshi shahrida (13,4 %), Yakkabog' (8,6 %), Koson (8,6 %), Qarshi (7,6 %), Kasbi (7,0 %), G'uzor (6,6 %), Kitob (6,5 %), Shahrisabz (6,5 %), Nishon (5,9 %), Qamashi (5,3 %), Dehqonobod (5,0 %), Mirishkor (4,6 %), Chiroqchi (4,1 %), Shahrisabz shahri (4,0 %), Ko'kdala (3,7 %) va Muborak (2,6 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati



**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining
hududlar kesimidagi soni**
(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimidagi soni**
(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan 16831 ta mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahrida (22,5 %), Koson (10,2 %), Yakkabog‘ (8,8 %), Qamashi (7,9 %), Qarshi (6,2 %), Kasbi (6,1 %), Mirishkor (6,0 %), Nishon (5,4 %), Chiroqchi (5,0 %), Kitob (4,1 %), G‘uzor (3,9 %), Shahrisabz shahri (3,7 %), Muborak (3,7 %), Shahrisabz (2,9 %), Ko‘kdala (2,2 %) va Dehqonobod (1,4 %) tumanlari hissalariga tegishli.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomaga tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo’lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.